*Maqolaning maqsadi* – kompyuter dasturlarini mualliflik huquqi asosida muhofaza qilishning milliy va xalqaro mexanizmlarini tahlil qilish, amaldagi qonunchilikning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda huquqiy muhofazani takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalar yechiladi: birinchidan, kompyuter dasturining huquqiy tabiati va uning mualliflik huquqi obyekti sifatidagi maqomi sharhlanadi; ikkinchidan, xalqaro standartlar, ya'ni Intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risidagi bitim (TRIPS), Butunjahon Intellektual Mulk Tashkilotining Mualliflik huquqi to'g'risidagi shartnomasi (WCT) va Yevropa Ittifoqi yondashuvlari milliy qonunchilik bilan qiyoslanadi; uchinchidan, adaptatsiya, dekompilyatsiya, ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash va huquqni amalga oshirish mexanizmlarining amaldagi modellari baholanadi; to'rtinchidan, qonunchilikni takomillashtirishning normativ va institutsional yo'nalishlari taklif qilinadi (World Intellectual Property Organization, 2019).

Ushbu ilmiy maqolada kompyuter dasturlari uchun bazaviy va eng barqaror muhofaza rejimi mualliflik huquqi hisoblanishi ko'rib chiqiladi, chunki xalqaro va milliy qoidalar kodni ifoda shakli sifatida muhofaza qiladi. Biroq bu rejim universal emas: u algoritm, interfeys g'oyalari, operatsion prinsiplar yoki sof funksional yechimlarni to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli mualliflik huquqi litsenziya, tijorat siri, texnik himoya vositalari va ayrim texnik yechimlarda patent-huquqiy instrumentlar bilan to'ldirilishi kerak.

Mavjud adabiyotlarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh dasturlarni asosan mualliflik huquqi obyekti sifatida ko'radi; bu yo'nalishda Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (BIMT)ning rasmiy sahifalari va Bentli hamda Shermanning umumiy intellektual mulk doktrinasiga oid ishlari mualliflik huquqini asosiy rejim sifatida talqin qiladi (Bently & Sherman, 2014). Ikkinchi guruh patent va dasturiy ta'minot bilan bog'liq ixtirolar (*software-related inventions)* masalasiga e'tibor qaratadi; bu yerda BIMT dasturiy ta'minot patentlari (*software patents)* masalasida to'liq uyg'unlashuv yo'qligini tan oladi. Uchinchi guruh *dekompilyatsiya, o'zaro muvofiqlik (interoperability) va* dasturlararo interfeyslar *(program interfaces)* muammosiga ixtisoslashgan. Shuningdek, *Shemtov, Widła* va *Top System ishi* bo'yicha tahlillar huquq egalarining huquqlari va interfeys himoyasi chegaralari doimiy munozarada ekanini ko'rsatadi. To'rtinchi guruh axborot regulyatsiyasi va manba kodi muhofazasi kabi yangi yo'nalishlarga tegishli bo'lib, Mitchell, Let va Tang manba kodining regulyativ ahamiyatini SI huquqi doirasida muhokama qiladi (Mitchell et al., 2023). Ushbu ishlardan ko'rinib turibdiki, adabiyotlarda asosan doktrinal, qiyosiy va sud amaliyoti (*case-law)* tahlil usullari ustun; sof statistik yoki katta ma'lumotlar bazalariga asoslangan tadqiqotlar nisbatan kamdir.

Mahalliy huquqshunoslikda mualliflik huquqi, jamoaviy boshqaruv va sun'iy intellekt bilan bog'liq muammolar yuzasidan ishlangan tadqiqotlar intellektual mulk sohasida normativ aniqlik va huquqlarni amalga oshirish masalalariga e'tibor qaratadi. Xususan, olimlarning tadqiqot

ishlarida mualliflik huquqlarini boshqarish, huquq egalari manfaatlari va xorijiy tajriba qiyosiy jihatdan yoritiladi. Biroq mahalliy adabiyotlarda aynan kompyuter dasturlarining server tomonlama foydalanilishi, litsenziya tekshiruvi, raqamli izlar va dekompilyatsiya huquqlari kabi maxsus masalalar hali ham chuqur institutsionallashgan tadqiqot obyektiga aylanmagan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqola mualliflik-huquqiy umumiy doktrina bilan dasturiy ta’minotga xos muammolar o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldirishga yo‘naltirilgan (Yakubova, 2023).

**Metodlar**

Tadqiqot uchta o‘zaro bog‘liq qismdan iborat. Birinchi qismda xalqaro huquqiy standartlar tahlil qilindi, ya’ni *TRIPS*ning 9-10-moddalari, *WCT*ning raqamli muhitga oid qoidalari, BIMTning dasturiy ta’minotni huquqiy himoya qilish (*software protection)* bo‘yicha rasmiy pozitsiyalari va Yevropa Ittifoqining 2009/24/EC Direktivasi qiyosiy o‘rganildi. Bu qismning vazifasi dasturlarning xalqaro huquqda qanday kvalifikatsiya qilinishini va g‘oya/ifoda dixotomiyasi, originallik, tayyorlov dizayn materiallari hamda huquq egalarining huquqlari qanday shakllanganini aniqlashdan iborat bo‘ldi (World Intellectual Property Organization, n.d.).

Ikkinchi qism milliy qonunchilikni qamrab oldi. Bu yerda “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonun, “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi to‘g‘risida”gi qonun, intellektual mulkka oid ishlar bo‘yicha Oliy Sud Plenumi qarori, EHM dasturlarini ro‘yxatdan o‘tkazishni yengillashtiruvchi 2024-yilgi ma’muriy o‘zgarishlar, shuningdek, buzilgan huquqlar uchun to‘lov va kompensatsiya mexanizmlarini kuchaytiruvchi 2024-yildagi qonunchilik yangilanishlari tahlil qilindi. Bu bosqichda norma matni, huquqiy tushunchalar, istisnolar, shartnomaviy rejim va protsessual jihatlar bir-biri bilan bog‘lab ko‘rib chiqildi.

Uchinchi qismda ochiq rasmiy ma’lumotlar yordamida tadqiqot obyektini tavsiflovchi asosiy dinamika, ya’ni rivojlanish baholandi. Bu yerda axborot-kommunikatsiya sohasida bandlik, o‘zini o‘zi band qilish, raqamli xizmatlar talabining o‘sishi, davlatning elektron xizmatlar infratuzilmasi va EHM dasturlarini ro‘yxatdan o‘tkazish/reyestr infrastrukturasiga oid institutsional o‘zgarishlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, EHM dasturlarining yilma-yil rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilishi bo‘yicha yaxlit ochiq statistik jihatlar aniqlashtirilmagan, shu sababli natijalar qismida huquqiy va institutsional dinamika ustuvorlik kasb etdi.

Asosiy metodlar quyidagilar bo‘ldi: formal-yuridik metod – norma matni, tushunchalar, imperativ va dispozitiv qoidalarni talqin qilish uchun; qiyosiy-huquqiy metod – xalqaro va milliy normalarni solishtirish uchun; tizimli metod – mualliflik huquqi, tijorat siri, litsenziya, texnik vositalar va sud amaliyotini yagona muhofaza portfeli sifatida baholash uchun; tarixiy-huquqiy metod – 1994-yildan 2024–2026-yillargacha bo‘lgan islohotlar dinamikasini ko‘rsatish uchun. Tadqiqot obyekti sifatida kompyuter dasturlarini yaratish, ulardan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar; predmeti esa mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi milliy va xalqaro huquqiy mexanizmlar. Shuningdek, maqolaning asosiy xarakteri normativ-doktrinal hisoblanadi.

**Natijalar**

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, kompyuter dasturlarini muhofaza qilishning dolzarbligi uchta o‘zaro bog‘liq dinamika: iqtisodiy, davlat raqamlashuvi va huquqiy-institutsional dinamikalar bilan belgilanadi. Xususan, iqtisodiy dinamika dasturiy ta’minot va axborot-kommunikatsiya sohasining kengayishi, raqamli mehnat bozorining o‘sishi va AT xizmatlari eksportini keskin oshirish bo‘yicha davlat maqsadlari bilan ifodalanadi. Davlat raqamlashuvi dinamikasida esa elektron xizmatlardan foydalanuvchilar soni va xizmatlar hajmining katta sur’atda o‘sishi dasturiy mahsulotning amalda qanchalik markaziy o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi (1-jadval). Huquqiy-institutsional dinamika 1994-yilgi maxsus qonundan boshlab 2024-yilgi kompensatsiya va registratsiya mexanizmlarigacha bo‘lgan islohotlar orqali ifodalanadi. Shu sababli huquqiy muhofazaga oid masalalar oxirgi foydalanuvchi nusxasi *(end-user copy*) modeli bilan cheklanmasdan, platforma (*platform),* bulutli *(cloud),* litsenziya va raqamli dalil modellarini ham qamrab olishi kerak bo‘ladi.

*1-jadval*

**Kompyuter dasturlarini huquqiy muhofaza qilish dolzarbligini koʻrsatuvchi asosiy dinamika**

| Koʻrsatkich | Boshlangʻich nuqta | Joriy/keyingi nuqta | Huquqiy ahamiyati |
|---|---|---|---|
| Axborot-kommunikatsiya tarmogʻida bandlar soni | 64,3 ming nafar (2017) | 108,8 ming nafar (2026) | Dasturiy mahsulotlar aylanmasi va litsenziya munosabatlari koʻlamini oshiradi |
| Oʻzini oʻzi band qilganlar | 10 ming nafar | 181 ming nafar | Mustaqil developer, frilancer va platforma (*platform)* mehnati uchun huquqiy aniqlik zarur |
| Elektron xizmatlarga talab | 937 ming | 9,5 million | Dasturiy tizimlardan ommaviy foydalanish huquqlarni ta'minlash (*enforcement)*ni murakkablashtiradi |
| ID tizimi orqali ulangan resurslar | — | 245 + resurs | Davlat axborot tizimlarida kod va litsenziya xavflari ortadi |
| YIDXPdagi elektron xizmatlar | — | 400 + xizmat | Dasturiy ta'minot komplayensi *(software compliance)* va xizmat koʻrsatish shartnomalari ahamiyati kuchayadi |
| EHM dasturlarini roʻyxatdan oʻtkazish tartibi | markazlashgan tartib | 2024-yildan DXM va my.gov.uz orqali topshirish, QR hujjat | Dalillashtirish va hujjatlashtirish infratuzilmasi yaxshilanadi |

*Manba: rasmiy davlat va hukumat manbalari asosida tuzildi.*

*TRIPS* 10.1-moddasiga koʻra, kompyuter dasturlari, manba yoki obyekt kodidan qat'i nazar, Bern konvensiyasi asosida adabiy asar sifatida muhofaza qilinadi. WCT esa raqamli muhit uchun shu rejimni yanada mustahkamlab, kompyuter dasturlari "qanday ifoda shaklida boʻlishidan qat'i nazar", mualliflik huquqi bilan himoya qilinishi lozimligini belgilaydi. *WIPO*ning rasmiy izohlari ham mualliflik huquqini dasturiy ta'minot uchun umumqabul qilingan standart rejim sifatida tavsiflaydi, dasturiy ta'minot bilan bogʻliq ixtirolarga nisbatan patent muhofazasi esa mamlakatlarga qarab farq qilishini qayd etadi. Bu xulosadan kelib chiqib, xalqaro standart mualliflik huquqining markaziy rolini inkor etmaydi; aksincha, patent va boshqa muhofaza hujjatlarini uning ustidan qoʻshimcha qatlam sifatida koʻradi.

Milliy qonunchilik ham ana shu model bilan hamohang hisoblanadi. OʻRQ–42-sonli qonunning 6-moddasida barcha turdagi EHM dasturlarini, jumladan, har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda, boshlangʻich matn hamda obyekt kodida ifodalanishi mumkin boʻlgan amaliyot dasturlari va operatsion tizimlarni mualliflik huquqi obyekti deb tan oladi. Qonunning 10-moddasiga muvofiq, mualliflik huquqi asar yaratilgan faktning oʻziga koʻra vujudga keladi va uning yuzaga kelishi uchun roʻyxatdan oʻtkazish yoki boshqa rasmiyatchilik shart emas. Shuningdek, qonunning 35-moddasi esa muhofaza muddatini muallifning hayoti va vafotidan keyin yetmish yil qilib belgilaydi. Demak, milliy modelda avtomatik muhofaza, kodning ikki asosiy shaklini qamrab olish va uzoq muddatli huquqiy barqarorlik prinsiplari mustahkamlangan (Republic of Uzbekistan, 2006).

1994-yilgi 1060-XII-sonli qonun mazkur bazaviy rejimni maxsus dasturiy ta'minotga oid normalar bilan toʻldiradi. Ushbu qonun bilan beriladigan huquqiy himoya har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda ifodalanishi mumkin boʻlgan EHM dasturlarining barcha turlariga, shu jumladan, boshlangʻich matn va obyekt kodiga nisbatan ham tatbiq etiladi. Ayni vaqtda qonun dastur yoki ma'lumotlar bazasining gʻoya va prinsiplariga, interfeys hamda algoritmni tashkil qilish

g'oyalari va prinsiplariga, shuningdek, dasturlash tillariga muhofaza tatbiq etilmasligini aniq belgilaydi. Bu yerda milliy huquq mualliflik huquqining g'oya/ifoda chegarasini aniqlashtirgan holda funksional va mavhum yechimlarni emas, ifodaning o'zi muhofaza qilinishini ochiq tan oladi.

Shuningdek, qonuniy egalik qiluvchining huquqlari sohasida ham muhim natija kuzatiladi. Mamlakatimizning 1060-XII-son qonuni 12-moddasi qonuniy nusxa egasiga dasturni uning vazifasiga monand ishlatish, EHMga yozish, xotirada saqlash, aniq ko'rinib turgan xatolarni tuzatish, shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, adaptatsiya qilish, arxivlash maqsadida nusxa tayyorlash hamda o'zaro hamkorlikda ishlash uchun zarur axborotni boshqa manbadan olish mumkin bo'lmaganda muayyan shartlar asosida dekompilyatsiya qilishga ruxsat beradi. Bu holat, ayniqsa, muhimdir, ya'ni milliy qonun huquq egasining mutlaq huquqi bilan qonuniy foydalanuvchi manfaatlari o'rtasida muayyan balans o'rnatgan. Ammo amaliyotda "adaptatsiya", "modifikatsiya" va "dekompilyatsiya" chegaralarining yetarlicha detallashmagani huquqiy noaniqlikka sabab bo'lishi mumkin (Republic of Uzbekistan, 1994).

Qiyosiy natijalar ham shu jihatlarni tasdiqlaydi. Yevropa Ittifoqining 2009/24/EC Direktivasiga muvofiq, kompyuter dasturlari copyright orqali adabiy asar sifatida muhofaza qilinadi, tayyorlov dizayn materiallari ham qamrab olinadi, biroq dasturning har qanday elementi asosidagi g'oya va prinsiplar, shu jumladan, interfeyslar asosidagi g'oya va prinsiplar muhofaza qilinadigan obyekt hisoblanmaydi (European Parliament and Council, 2009). *Top System ishi* bo'yicha zamonaviy tahlillar qonuniy xaridor xato tuzatish uchun dasturni qisman yoki to'liq dekompilyatsiya qilishi mumkinligini, ammo bu huquq zarurat va proporsionallik bilan cheklanishini ko'rsatadi. Demak, O'zbekiston qonunchiligidagi maxsus qoidalar umumiy huquqiy yo'nalishdan chetga chiqmaydi, lekin ularni amaliyot uchun aniqlashtirish zarur.

Huquqni amalga oshirish sohasida ham bir qator ilmiy-amaliy natijalar mavjud. O'RQ-42-sonli qonunning 62-moddasi obyektning buzilish tarkiblarini, 63-modda texnik himoya vositalarini, 65–66-moddalar esa himoya usullari, zarar va boy berilgan foydani qoplash hamda kontrafakt nusxalarni musodara qilish tartibini belgilab beradi. Shuningdek, 2023-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 19-son qarori litsenziya va huquqlarni o'tkazish shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazishga oid tushuntirishlar berdi, mualliflik huquqiga oid nizolarda ifoda shakli va mazmun elementlarini farqlash lozimligini ko'rsatdi (Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2023). 2024-yilgi O'RQ–959-sonli qonun esa intellektual mulk obyektlaridan qonunga xilof foydalanilganda tovon to'lash mexanizmini kuchaytirishga qaratilgan (Republic of Uzbekistan, 2024). Bularning barchasi O'zbekistonda dasturiy ta'minotni amalga oshirish yo'nalishi bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, institutsional infratuzilma ham sezilarli yangilangan (2-jadval). "Faol muallif" reyestrida Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk organi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari haqida ma'lumotlar saqlanadi. 2024-yil 1-iyuldan esa EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnomalarni Davlat xizmatlari markazlari hamda YIDXP/*my.gov.uz* orqali topshirish, shu bilan birga, QR-kod bilan muhofazalangan elektron hujjat berish tartibi joriy qilingan. Bu o'zgarishlar muhofaza huquqining yuzaga kelishini emas, balki dalillashtirish va huquqni boshqarish infratuzilmasini yengillashtiradi; demak, avtomatik mualliflik huquqi prinsipi bilan ixtiyoriy ro'yxat infratuzilmasi o'zaro raqib emas, balki bir-birini to'ldiruvchi institutlardir.

Tadqiqotning eng muhim ilmiy-amaliy natijasi – kompyuter dasturlari uchun "ko'p qatlamli muhofaza modeli"ni asoslash. Bu modelda mualliflik huquqi bazaviy qatlamni tashkil qiladi. Tijorat siri ko'proq oshkor etilmagan kod, arxitektura va nou-xauni muhofaza qiladi. Litsenziya va shartnomalar foydalanish hajmi, audit, yangilash, texnik xizmat ko'rsatish va hududiy cheklovlarni boshqaradi; texnik himoya vositalari esa huquqbuzarlik xavfini texnologik darajada pasaytiradi. Patent faqat muayyan texnik yechimlardagina qo'llanadi. Ushbu model xalqaro manbalar, milliy qonunchilik va huquqni amalga oshirish amaliyoti bilan mos keladi, shuning uchun uning samaradorligi nazariy emas, balki institutsional jihatdan asoslangan.

*2-jadval*

**Kompyuter dasturlarini muhofaza qilishning huquqiy-institutsional evolyutsiyasi**

| Davr (yil) | Asosiy hujjat yoki voqea | Mazmuni | Amaliy ahamiyati |
|---|---|---|---|
| 1994 | 1060-XII-sonli qonun | EHM dasturlari va MBlar uchun maxsus qonun qabul qilindi | Dasturiy ta'minot uchun maxsus *(software-specific)* huquqiy rejimi shakllandi |
| 2005 | Bern konvensiyasiga qo'shilish | Mualliflik huquqining xalqaro minimal standartlari bilan uyg'unlashuv | Formalliksiz muhofaza tamoyili kuchaydi |
| 2006 | O'RQ–42-sonli qonun | Barcha turdagi EHM dasturlari mualliflik huquqi obyekti sifatida mustahkamlandi | Kodning milliy mualliflik huquqi *(copyright)* rejimi aniqlashtirildi |
| 2019 | WCTga qo'shilish | Raqamli muhitga oid xalqaro *copyright* standarti qabul qilindi | Onlayn va raqamli foydalanishda xalqaro uyg'unlashuv oshdi |
| 2023 | Oliy Sud Plenumi 19-sonli qaror | Litsenziyalar va mualliflik nizolari bo'yicha tushuntirishlar | Sud amaliyoti prognozlanuvchanligi oshdi |
| 2024 | O'RQ–959-sonli va yangilangan ma'muriy jarayonlar | Tovon mexanizmi kuchaytirildi, *my.gov* orqali ro'yxatdan o'tkazish yo'lga qo'yildi | Huquqlarni ta'minlash (*enforcement)* va dalillashtirish instrumentlari yaxshilandi |

*Manba: xalqaro va milliy rasmiy manbalar asosida tuzildi.*

Natijalarning haqqoniyligi, birinchi navbatda, manbalar iyerarxiyasi bilan ta'minlanadi. Tadqiqot markaziga rasmiy qonunlar, xalqaro shartnomalar, sud tushuntirishlari va davlat organlari ma'lumotlari qo'yildi. Ikkinchidan, qiyosiy huquqiy materiallar – *TRIPS, WCT, WIPO* izohlari va Yevropa Ittifoqining dasturiy ta'minot bo'yicha Direktivasi (*EU Software Directive)* – O'zbekiston modelini xalqaro modellar bilan solishtirish imkonini berdi. Uchinchidan, ilmiy adabiyotlar bu norma va institutlarning nazariy asosini tushuntirishga xizmat qildi. Albatta, EHM dasturlarining huquqbuzarliklar kesimidagi to'liq milliy statistik qator, shuningdek, dasturiy ta'minotga oid nizolar bo'yicha yagona ommaviy nizoli ishlar bazasi aniqlashtirilmagan; shu sababli maqola miqdoriy emas, normativ va institutsional haqqoniylikka tayanadi.

**Muhokama**

Mualliflik huquqini kompyuter dasturlari uchun eng to'g'ri boshlang'ich rejim deb qabul qilamiz, chunki xalqaro va milliy huquq aynan shu yo'nalishni tanlagan. Bu yerda bahs "Dasturiy ta'minotni mualliflik huquqi bilan muhofaza qilish kerakmi?" degan savolda emas, balki shu muhofazaning obyekti qayerda boshlanib, qayerda tugashiga oid savolda mavjuddir. Kod, tayyorlov dizayn materiallari, ayrim ekran ifodalari va nusxa ko'chirish huquqi muhofaza qilinadi. Lekin algoritmning o'zi, interfeysdagi g'oya va prinsiplar, funksional natijaning abstrakt hal qilingan usuli *copyright*ning predmeti emas. Shuning uchun dasturiy ta'minot sohasida mualliflik huquqini cheksizlashtirish emas, balki aniq chegaralash muhim. Bu jihatda O'RQ–42 va 1060-XII qonunlaridagi g'oya/ifoda ajratilgan yondashuv to'g'ri, lekin amaliyot uchun yanada uni aniqlashtirish kerak.

Shu bilan birga, "dasturni faqat mualliflik huquqi himoya qiladi, boshqa hech narsa kerak emas" degan pozitsiyani ham qo'llab bo'lmaydi. Bu sodda va eskirgan qarash hisoblanadi. Haqiqiy bozorda dasturiy ta'minot kod emas, balki xizmat, servis, obuna, API, platforma integratsiyasi va bulutli arxitektura bilan yashaydi. Bu yerda litsenziya shartnomasi, audit sharti, *access control*, NDA, tijorat siri va DRMsiz huquqiy muhofaza to'liq bo'lmay qoladi. WIPO ham dasturiy ta'minot uchun mualliflik huquqi va patent turlicha funksiya bajarishini tan oladi. Demak, kompleks yondashuvni rad etish, avvalambor, huquqiy emas, amaliy xato bo'ladi.

Sohaga oid maxsus va tizimli empirik ma’lumot yetishmasligi tadqiqotni o‘rganishdagi qiyinchilikdir. EHM dasturlarining yilma-yil ro‘yxatdan o‘tkazilishi, litsenziya bo‘yicha nizolar soni, kontrafakt dasturiy ta’minot bo‘yicha ma’muriy va jinoiy ishlarning aniq tahliliy qatori ommaga bir joyda jamlangan ko‘rinishda taqdim etilmagan. Bu holat ilmiy baholashni qiyinlashtiradi, ya’ni normativ reformalar taklif qilinadi, ammo ularning ta’sir darajasi doim ham o‘rganilmaydi. Shuning uchun kelgusi tadqiqotlar uchun rasmiy *statistik byulleten*, *dasturiy ta’minot bo‘yicha nizolar reyestri* va *muntazam monitoring* juda muhim. Huquqshunoslikda empirik zaiflikni yashirish odatiy ilmiy muammolarni chuqurlashtiradi xolos.

Ikkinchi to‘siq esa tushunchaviy noaniqlik. Adaptatsiya, modifikatsiya, dekompilatsiya, o‘zaro moslik testi va xatolarni tuzatish o‘rtasidagi farq qonun matnida mavjud bo‘lsa-da, barcha amaliy vaziyatlar uchun yetarlicha ishlab chiqilmagan. Xususan, server dasturiy ta’minot, *SaaS* va *API-based systems* sharoitida “qonuniy egalik qiluvchi” maqomi, ruxsat etilgan harakatlar va shartnomani bekor qilish chegaralari murakkablashadi. *Top System* atrofidagi Yevropa bahslari ham shu nuqtani ko‘rsatadi. Bunda muammo normalarning yo‘qligida emas, ularning zamonaviy dasturiy ta’minot arxitekturasini tatbiq qilishdadir. Milliy qonunchilik ana shu murakkablikni hozircha umumiy formula bilan qamrab olgan, lekin detalizatsiyasiz amaliyotda turlicha talqin xavfi saqlanib qoladi.

Formal-yuridik metodning afzalligi shundaki, u norma matni va huquqiy konstruksiyalarni aniq ochib beradi; ammo uning kamchiligi bozor amaliyoti va texnologiya dinamikasini yetarli o‘lchamda ko‘rsatmasligidir. Qiyosiy-huquqiy yondashuv esa minimal xalqaro standart va milliy huquqning farqini ko‘rsatishni kuchaytirib beradi: *TRIPS* va *WCT* dasturiy ta’minotni adabiy asar deb kvalifikatsiya qilishi, YIning dasturiy ta’minot bo‘yicha Direktivasining interfeys va g‘oyalarni muhofaza doirasidan chiqarishi hamda huquq egasi huquqlarini belgilashi milliy islohotlar uchun tayyor asos bo‘ladi (U.S. Copyright Office, 2021). Lekin qiyosiy yondashuv ham lokal bozordagi protsessual va institutsional cheklovlarni avtomatik hal qila olmaydi. Shu bois, fikrimizcha, dasturiy ta’minot qonunida eng samarali model formal-yuridik, qiyosiy va cheklangan empirik tahlilni birlashtirgan gibrid metodologiyadir.

Boshqa tadqiqotlar bilan solishtirganda ushbu ilmiy maqola *Shemtov* (2023) va *Widła (*2023*)* ishlaridagi o‘zaro moslashuvchanlik, qonuniy sotib oluvchi va dekompilyatsiya muammosini tahlil qildi. *Freedman* (2000) ilmiy maqolasida dasturiy ta’minotni himoya qilishning qo‘shimcha jihati sifatida ma’qullaydi, lekin patentni dasturlar uchun universal yechim sifatida baholovchi yondashuvga qo‘shilmaydi. Bu yerda aniq aytish kerak: “dasturiy ta’minotni patent bilan himoya qilaveramiz, mualliflik huquqi shart emas” degan pozitsiya doktrinal jihatdan ham, xalqaro qoidalar nuqtayi nazaridan ham zaif. Aksincha, mualliflik huquqi markazda, patent esa faqat ayrim texnik natija beruvchi yechimlarda cheklangan qo‘shimcha vosita sifatida ko‘rilishi kerak. Mahalliy islohotlar ham xuddi shu aniq shaklni olishi darkor.

**Xulosa**

Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, kompyuter dasturlarini muhofaza qilishda milliy va xalqaro huquqning asosiy yo‘nalishi to‘g‘ri tanlangan: dasturlar mualliflik huquqi orqali adabiy asar sifatida muhofaza qilinadi, muhofaza avtomatik yuzaga keladi, manba kodi va obyekt kodi qamrab olinadi, g‘oya va prinsiplar esa muhofaza doirasidan tashqarida qoladi. O‘zbekiston qonunchiligi bu standartlarni qabul qilgan va so‘nggi yillarda sud tushuntirishlari, kompensatsiya mexanizmi va ro‘yxat infratuzilmasi orqali ularni kuchaytirishga harakat qilmoqda. Biroq amaldagi model zamonaviy dasturiy ta’minot ekotizimining barcha xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi. Ayniqsa, qonuniy foydalanish, dekompilyatsiya, litsenziya, texnik himoya vositalari va raqamli dalillar sohasida yanada aniqlikka muhtoj.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi.

*Birinchidan,* “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi to‘g‘risida”gi 1060-XII-son Qonunda “adaptatsiya”, “modifikatsiya”, “dekompilyatsiya” va “o‘zaro hamkor ishlash uchun zarur axborot” tushunchalarini aniqroq normativ mezonlar bilan boyitish lozim.

*Ikkinchidan,* EHM dasturlarini ro‘yxatdan o‘tkazishda dasturiy ta’minot identifikatsiyasini belgilaydigan minimal texnik va huquqiy standartlar, jumladan, kod fragmentlari, versiya, funksional yozuv va metadata bo‘yicha usullar ishlab chiqilishi kerak.

Uchinchidan, litsenziya nizolari va huquqbuzarliklarda raqamli dalillar, ya’ni *log, access history, activation data, hash* va *deployment record*larni baholashga qodir ixtisoslashgan ekspert infratuzilmasi yaratilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, dasturiy ta’minot qaroqchiligi va litsenziyani suiiste’mol qilish bo‘yicha maxsus monitoring mexanizmlari rivojlantirilishi zarur.

Beshinchidan, ilmiy va amaliy baholash uchun EHM dasturlari muhofazasiga oid rasmiy yillik statistik byulleten e’lon qilinishi kerak. Mana shu choralar mualliflik huquqini saqlab qolgan holda dasturiy ta’minotni himoya qilishni real raqamli muhitga moslashtiradi.

Shuningdek, kompyuter dasturlarini mualliflik huquqi doirasida himoya qilishda faqat huquqiy normalarni belgilash yetarli emas, balki ularning amalda ishlash mexanizmlarini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, dasturiy mahsulotlarni noqonuniy nusxalash, internet orqali ruxsatsiz tarqatish, litsenziya shartlarini buzish va dastur kodidan noqonuniy foydalanish holatlariga nisbatan samarali nazorat va javobgarlik choralarini kuchaytirish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qonunchiligida kompyuter dasturlari mualliflik huquqi obyekti sifatida tan olingan bo‘lsa-da, ularni zamonaviy raqamli muhitda himoya qilish masalasi yanada aniq va batafsil tartibga solinishga muhtoj. Ayniqsa, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan dasturlar, ochiq kodli dasturiy ta’minot, bulutli texnologiyalar va transchegaraviy raqamli xizmatlar bilan bog‘liq huquqiy masalalar bo‘yicha alohida normalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Shu sababli milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, dasturiy mahsulotlarni ixtiyoriy ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini soddalashtirish, muallif va huquq egalarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish taklif etiladi. Bu esa nafaqat mualliflik huquqlarining samarali himoyasini ta’minlaydi, balki mamlakatda AT sohasi, raqamli iqtisodiyot va innovatsion tadbirkorlik rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

## REFERENCES

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2023, June 23). On certain issues concerning the consideration of intellectual property cases (Resolution No. 19). https://lex.uz/uz/docs/-6522606

President of the Republic of Uzbekistan. (2020, October 5). On approval of the Digital Uzbekistan—2030 Strategy and measures for its effective implementation (Decree No. PD-6079). https://lex.uz/docs/-5030957

Republic of Uzbekistan. (1994, May 6). On the legal protection of computer programs and databases (Law No. 1060-XII). https://lex.uz/docs/-143983

Republic of Uzbekistan. (2006, July 20). On copyright and related rights (Law No. LRU-42). https://lex.uz/uz/docs/-1022944

Republic of Uzbekistan. (2024, September 10). On introducing amendments and additions to certain legislative acts of the Republic of Uzbekistan in connection with the further improvement of the system for the legal protection of intellectual property (Law No. LRU-959). https://lex.uz/uz/docs/-7097984

Shemtov, N. (2023). *Software protection under copyright law: Interoperability and protection of program interfaces.* In E. Bonadio & P. Goold (Eds.), *The Cambridge handbook of investment-driven intellectual property* (pp. 98–113). Cambridge University Press.

Top System SA v État belge, Case C-13/20, ECLI:EU:C:2021:811 (Court of Justice of the European Union, October 6, 2021). https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:62020CJ0013

U.S. Copyright Office. (2021). *Circular 61: Copyright registration for computer programs.* https://www.copyright.gov/circs/circ61.pdf

Widła, B. (2023). Circular economy versus copyright protection of computer programs in the EU: Challenges and lessons from the CJEU's judgment in Top System. *Journal of Intellectual Property Law & Practice, 18*(5), 353–359.

World Intellectual Property Organization. (2019). *WCT notification No. 92: Accession by the Republic of Uzbekistan.* WIPO.

World Intellectual Property Organization. (n.d.). *Copyright protection of computer software.* WIPO. https://www.wipo.int/en/web/copyright/activities/software

Yakubova, I. B. (2023). Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish institutining tashkiliy-huquqiy shakllari [Organizational and legal forms of the institute of collective management of property rights in copyright]. *Journal of Integrated Education and Research, 2*(2), 25–31.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2026-yil maxsus son**

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026
DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI.